



JADID ADABIYOTIDA TABIAT TASVIRLARINING RAMZIYLASHTIRILISHI ABDULLAAVLONIY IJODI MISOLIDA

Ismatova Mohigul To‘yevna

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

ismatovamoxigul@gmail.com

Jadid adabiyotida tabiat tasvirlari ham ramziy ma’noda ifoda etilgan. O‘zbek muallimlarining otasi, jadid adbiyoti vakili Abdulla Avloniy ijodiga mansub turli mavzudagi she’rlarda tabiat tasvirini uchratish mumkin.

Jadid shoirlari uchun jamiyatda yuz bergan yomon illatlar, adolatsizliklar, zulm millat boshiga tushgan qora kunlar, davrning og‘riqli dardlarini, zamondoshlarining alamli va mahzun kayfiyatini, goho ehtirosli qalb kechinmalarini tasvirlashda tabiat asosiy omil sifatida qo‘llangan. Natijada jadid she’riyatida yil fasllariga doir qator ramziy obrazlar yuzaga keldi. Jadid ijokorlarining yil fasllariga murojaati o‘ziga xoslik kuzatiladiki, buni quyidagi tahlillarda ko‘rishimiz mumkin.

Xususan, Abdulla Avloniy ijodida yil fasllariga murojaat qilinganligini uning fasllar nomi bilan atalgan she’rlari misolida ko‘rishimiz mumkin. Adibning “Maktab gulistoni” to‘plamidan “Bahor”, “Yoz”, “Kuz”, “Qish”, “Bahor keldi” kabi she’rlari o‘rin olgan.

Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘ati turk” dagi “Yoz va qish” munozarasida fasllarning o‘z fazilatini aytib maqtanishi yoki bir-birini tanqid qilishi bilan bog‘liq tasvirlar munozara janrining shakllanishi uchun asos bo‘lganligi hammamizga ayon. Abdulla Avloniyning nomlari keltirilgan she’rlariga e’tibor qaratsak, shoir har bir faslning fazilatini maqtash bilan birga, xuddi “Yoz va qish” munozarasidagi kabi ularning nuqsonlarini, odamlarga yetkazadigan aziyatlarini davrning ijtimoiy muammolari bilan bog‘lab, tanqid qiladi. Shoir “Qish” she’rida ijtimoiy tabaqalarning ahvolini solishtiradi: “Yo‘qqa-yo‘xcha, borlora-borincha”, “yog‘liq palov boylarga”, “och-yalang‘och kambag‘allarga yerlarga tushgan qirovlar yozda yashnab o‘sadurg‘on sabza gulzorincha bor”. She’rning yakunida shoir “Hosili qish borni selob, yo‘qlari Hijron qilur” degan xulosaga keladi. Butun she’r davomida tazodiy fikrlar davom etadi. She’rda qish – ramziy ma’noda jamiyatdagi ijtimoiy muhitning ramzi sifatida real hayot bilan bog‘lab talqin qilinadi.

Abdulla Avloniy “Bahor” she’rida tabiatning go‘zalliklarini, bahorga xos sifatlarni ta’kidlab ko‘rsatar ekan, fikr o‘zanini jamiyat va jamiyat a’zolariga buradi, shu orqali o‘zining didaktik g‘oyalarini singdirib boradi. Inson umrini bahorga qiyoslash orqali hayotiy va chuqur falsafiy g‘oyani ilgari suradi.



Har kim nima eksa, albat, shuni o'rodur,
Ekmaganlar o'zgalarg'a muhtoj bo'lodur.
Keling, biz ham ekinimiz boshlab ekamiz,
Imtihonda ekg'animiz o'rib yig'amiz.
Har kim avval bahorini o'tkarsa bekor,
Yoz kelganda Hijron bo'lur, ul-tangri bezor.

Abdulla Avloniy she'riyatida bahor hurriyat ramzi sifatida ham talqin qilingan. Buni "Hurriyat sharafina" nomli musaddasida ham ko'rishimiz mumkin.

Chun bahor o'ldi, ochildi - gul ochildi har yondan,
Bulbul aytdi oh - zorin, nola chekdi, o'qudi.
Ko'rdi bulbul hurriyatni so'yladiki: ey jonon,
To qiyomat barqaror o'l, hech yo'q o'lma olamdan!
Ko'p kishilar oshiq erdi senga, jonon hurriyat,
Jon qilibdur necha inson senga qurbon, hurriyat

Jadid she'riyatida bahor ramzi tabiatning o'zgarishini ifodalabgina qolmay, balki ijtimoiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyotni ham simvallashtiradi. Yuqoridagi iqtibosda bahor, gul, bulbul, jonon kabi ramziy obrazlar orqali hurriyat va uning millat taqdiridagi o'rni masalasiga diqqat qilingan. Elga bahorning kelishi hurriyatning kelishiga qiyoslangan. Demak, she'rdagi bahor – taraqqiyot ramzi, millat taqdirida o'zgarishlarga umid qilingan hurriyat ramzi.

Avloniyning "Go'zal bahor" she'rida ham fasl nomi ramziy ma'no tashigan. Masnaviy shaklda qofiyalangan she'r lirik qahramonning bahorga murojaati bilan boshlanadi.

Ey bahor, olam aro uyg'otursan kukulari,
Uyg'otolmassan va lekin tosh yurakli turklari.
Ko'kdagi yig'lar bulutlar oy jamoling(ni) ko'rub,
Yerdagi oshno salohlar yangi holingni ko'rub.

Avloniy masnaviy davomida bahor va jamiyatni qiyoslab boradi. Har tarafdagi qushlar qishning zulmini bahor bilan sirlashadi, bog'u bo'stondagi daraxtlar gulu yaproq ochib, bahorga sano aytadilar.... Tasvir yana jamiyatga ko'chiriladi.

Yer yuzi ko'kmak bo'lub ko'k kiygani bejo emas,
Zulm ila o'lmish kishilar chun azo qilmish havas.
Ey go'zal fasli bahor! Og'la faqirlar holina,
Ochligindin gul yuzi so'lmish g'arib ahvolina

Yer yuzining "ko'kmak bo'lub ko'k kiyishi" bejo, ya'ni nojo'ya emas, chunki kishilar zulmdan o'lmoqdalar. Shoir xalqda shakllangan azada ko'k kiyish bilan bog'liq urf-odatdan juda o'rinli foydalanib, jamiyatdagi real hayotning tasvirini badiiy talqin qiladi.



Ta'kidlash kerakki, Avloniy faoliyatining bir qirrasi maktab va xalq maorifi bilan bog'liq. Millatni uyg'otishning yagona yo'li savodsizlikni tugatish edi. "Ilm yo'q, g'oya yo'q, maqsadi yo'q" xalqni ilm-ma'rifatli qilish orqali mustamlakachilik zulmidan qutilishni to'g'ri anglagan barcha jadid ijodkorlari qatori Avloniy ham amaliy faoliyati, ham ijodi bilan millat farzandlarining savodli qilish ishlariga kirishdi. Shoir 1919-yilda yozilgan "Izg'uchilarga tortuq" nomli she'rida qator ramziy obrazlar vositasida o'zining ezgu g'oyalarini singdirib boradi.

Sayrashing o'tmayin bahoringiz,
Kelsa yoz, ortidan xazon ko'rinur.
Ochiling, ey Vatan guli, ochiling,
Sizga bo'yla bahor qachon ko'rinur?!
G'unchalarni ochay debon Hijron
Elga ko'pdan beri yamon ko'rinur.

G'azaldagi "bahor", "gul", "g'uncha" "yoz" va "xazon" so'zlari metafora sifatida ishlatiladi. Ular Vatanning holatini, ijtimoiy o'zgarishlarni va millat farzandlariga ishora qiladi. Gullarning bahorda ochilishi tabiiy hodisa. Avloniy mana hodisani jamiyatdagi holatga ko'chiradi. Dastlabki baytda bahor, yoz, kuz inson umriga qiyoslangan bo'lsa, ikkinchi baytda bahor – Vatanning ozodligi va xalqning farovonligi uchun kutilgan davrni anglatadi. Uchinchi baytdagi "g'unchalarni ochmoq" birikmasi ham ramziy ma'noni ifodalaydi. G'uncha – ta'lim olishi lozim bo'lgan millat farzanlarining ramzi. Shoir ularni "ochilishini" istaydi, biroq buning evaziga "elga yamon" ko'rinadi.

Abdulla Avloniyning "Turkiston tufrog'indan bir sado" nomli she'rida "navbahor ayomi" ramziylashtirilgan.

Vatan bizlarg'a der: tahsil aylang ilm ila urfon,
Yetar g'aflat, yetar zillat, yetar bu xobi bepoyon,
Emas yotmoq zamoni, navbahor ayyomidur al'on,
O'turma go'shai g'aflatda, ekmak ilmini o'rgon
Qilur bizlardan, ey ahli Vatan, faryod Turkiston,
Hama obod bo'ldi, bo'lmadi obod Turkiston.

"Hama obod bo'lib", "Turkiston obod bo'lmasligi" ning sababi millatning "g'aflat, zillat, xobi bepoyon" ligidadir. Bunday ayanchli ahvoldan faqat ilm va ma'rifat bilan qutilish mumkin. Buning uchun "navbahor ayyomi" da "go'shai g'aflatdan" chiqishning yagona yo'li ilm o'rganmoq. Navbahor – millatni uyg'otish, xalqni "xobi bepoyon" dan chiqishga ishoradir.

Abdulla Avloniyning quyida keltirilgan "Ahvoli olamdan bir namuna" musammanida Turkistonning ozod va obod bo'lishga ishonch ruhi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Qilur tokay jafosin, bizga ham dildor o'lur olam,



To'lub mehr-u vafosi, qo'zg'alub g'amxor o'lur olam,
Muruvvatsizlig'indan jirkanub, bezor o'lur olam,
Bahori ma'rifat uyg'otsa, xushguftor o'lur olam,
O'sub rayhoni shafqat mushk ila totor o'lur olam,
Dilim, g'am chekma ko'b, bir kun kelur, bedor o'lur olam,
Chiqib bulbullari chah-chah qilur, gulzor o'lur olam.

Musammanda “gul”, “bulbul”, “gulzor” guliston, “qaro kunlar”, “adolat bog'i”, “gulobi hurriyat”, “to'fon” kabi qator ramzlar qo'llangan. Sakkiz bandan iborat musammanda Abdulla Avloniy jamiyatdagi “qora kunlar” ning ketib, o'rniga “ravshanlig” kelishga, “adolat bog'ining” yashnashiga, “gulobi hurriyat atri”dan millatning bahramand bo'lishga ishonadi. Buning uchun esa “Bahori ma'rifat uyg'onishi” zarurligini ta'kidlaydi. Shoir bahor faslga xos bo'lgan uyg'onish, yangilanish kabi xususiyatlarni “ma'rifat”ga ko'chiradi. Butun musamman davomida Avloniy jamiyatda “ma'rifat bahori” ning uyg'onishi g'amu – alamlar ketib olam (jamiyat) gulistonga aylanishi ta'kidlaydi. “Bahori ma'rifat” – asr boshida jadidlar intizor kutgan yangi davrga ishoradir.

Abdulla Avloniyning “Falak kajraf, yo Rab” deb nomlangan muxammasida “fandan bexabar” “zimistoni jahonda” g'aflatdan titragan millat qiyofasini chizadi. Muxammasning ikkinchi bandida “bahori tarbiyat” ramzini qo'llaydi. Bu bilan asr boshidagi millatni ilm va ma'rifatli, ta'lim va tarbiyali qilishga ishora qiladi. Shoir bunda bahor fasliga xos bo'lgan uyg'onish, yangilanish xususiyatlarni tarbiyaga ko'chiradi.

Tamoman bizg'a berdi yo zamin, yo osmon g'aflat,
Havo berdi biza onjaq nasimi dilkush on g'aflat,
Zamona nahri su o'rnig'a berdi, oh, qon g'aflat,
Zimistoni jahonda bormu bizdek titragon g'aflat,
Bahori tarbiyat bizlarg'a to'fon erdimu, yo Rab.

Abdulla Avloniyning tabiat va yil fasllariga bag'ishlab yozilgan she'rlarida qo'llangan tasvirlar aks etganligi jadid adabiyoti ramziylik qo'llanganligini yaqqol ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Mingboyeva D. Timsollar tilsimi. –T.: Yangi asr avlodi. 2007.
2. Cho'lpon. Yana oldim sozimni. -Toshkent: Adabiyot va san'at, 1991.
3. Qur'onov D. Cho'lpon hayoti va ijodiy merosi. T.: O'qituvchi, 1997.
4. Qur'onov D. Cho'lpon nasri poetikasi. “Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.T.: – 2004.
5. Eshonqulov H. Samovot – ishq mahzari. Istiqlol davri navoiyshunosligi. XXX jildlik. XXIII jild –T.: “Tamaddun”, 2021.



6. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U., Rizayev Sh, Ahmedov S. Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti. Oliy oʻquv yurtlarining filologiya fakultetlari uchun darslik. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2004.